

### 2021– yilning yanvar–dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021– yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 12339,3 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 11572,6 mlrd. so‘mni (103,8%), o‘rmon xo‘jaligi – 451,1 mlrd. so‘mni (100,7 %), baliqchilik xo‘jaligi – 315,6 mlrd. so‘mni (103,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.



12339,3

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



11572,6 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



451,1 O‘rmon xo‘jaligi

03




315,6 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)**



2021– yilning yanvar– dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,8 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,7 % – o‘rmon xo‘jaligi, 2,5 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


### **Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi**



2021– yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (2355,4 mlrd. so‘m) va Beruniy (1573,1 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo‘zatov (200,0 mlrd. so‘m), Mo‘ynoq tumanlari (209,8 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (75,0 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (103,7 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Qonliko‘l (115,5 %), Qo‘ng‘irot (109,0 %), Taxtako‘pir (108,7 %), Shumanay (108,5 %), Bo‘zatov (107,3 %), Amudaryo (107,3 %), Xo‘jayli (105,1 %) va Chimboy (105,4 %) tumanlarida kuzatildi, Kegeyli (100,3 %), Mo‘ynoq (79,9 %) va Nukus (88,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘shish sur‘ati



### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 11387,2 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 5365,8 mlrd. so‘mni (102,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 6021,4 mlrd. so‘mni (104,1 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**47,1 %**  
Dehqonchilik mahsulotlari



**52,9 %**  
Chorvachilik mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,0 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 31,9 % – fermer xo‘jaliklariga, 6,1 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2021–yilning yanvar– dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qonliko‘l (40,3 %) va Taxiatoosh tumanlarida (38,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus shahrida (98,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mo‘ynoq tumanida (11,0 %) qayd etildi.


Ferma xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (5,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qonliko‘l tumanida (51,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Bo‘zatov tumanida (1,4 %) qayd etildi.

### **Dehqonchilik**


2021–yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5365,8 mlrd. so‘mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,1 % ni tashkil qildi.

### **Donli ekinlar**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 270,9 ming t. donli ekinlar (2020–yilning mos davriga nisbatan 97,4 % ni tashkil qildi) ishlab chiqarildi. Donli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 79,1 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi bo‘yicha  
donli ekinlar  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Sabzavotlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 301,5 ming t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 5,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 60,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **sabzavotlar**  
yetishtirish hajmi, tonna**



## Kartoshka



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi)  
xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar**



2021–yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 89,4 ming t. kartoshka (2020–yilning yanvar– dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **kartoshka**  
yetishtirish hajmi, tonna




## Poliz


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 164,8 ming t. poliz (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 8,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,5 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **poliz**  
yetishtirish hajmi, tonna




## Meva va rezavorlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 61,9 ming t. meva va rezavorlar (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 6,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 44,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **meva va rezavorlar**  
yetishtirish hajmi, tonna




## Uzum


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11061 tonna uzum (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 6,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 55,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **uzum**  
yetishtirish hajmi, tonna




## Chorvachilik



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6021,4 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 52,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 116,1 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,5 % ga ko‘p), 419,3 ming t. sut (3,6 % ga ko‘p), 357,2 mln. dona tuxum (4,7 % ga ko‘p), 86,6 ming dona qorako‘l teri (3,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 14454,1 tonna baliq (0,1 % ga ko‘p) ovlandi.

**Go‘sh t (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 116,1 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **go‘sh**t (tirik vaznda)  
yetishtirish hajmi, tonna




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 419,3 ming t. sut (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 3,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha ishlab chiqarilgan  
sut hajmi, tonna**




## Tuxum


**Hajmi, mln. dona**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 357,2 mln. dona tuxum (2020–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 4,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 78,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha olingan **tuxum**  
hajmi, ming dona




## Baliq


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati, % da**




**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 14454,1 t. (2020– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 0,1 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha ovlangan **baliq**  
hajmi, ming tonna



### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yining 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,7 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,9 % fermer xo‘jaliklariga, 84,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 25,5 % fermer xo‘jaliklariga, 72,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,3 % fermer xo‘jaliklariga, 83,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,9 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1175,8 ming taga yetdi. 2021–yilning 1– yanvar holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni –37,3 ming taga (3,3%) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **yirik shoxli**  
**qoramollarning** umumiy  
bosh soni, *ming bosh*




2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 340,4 ming taga yetdi. 2021– yilning 1– yanvar holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 10,1 ming taga (3,1 %) ko‘paydi.

## Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da




Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha sigirlarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1178,0 ming taga yetdi. 2021– yilning 1– yanvar holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni –35,4 ming taga (3,1 %) ko‘paydi.

**Qo‘y va echkilar**


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 84,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha qo‘y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni- 26701 taga yetdi. 2021– yilning 1– yanvar holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni –783 taga (3,0 %) ko‘paydi.

## Otlar


**Soni, bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 72,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **otlarning**  
umumiy bosh soni, bosh**




2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 4851,7 ming taga yetdi. 2021– yilning 1– yanvar holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 108,4 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.

**Parrandalar**


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 83,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **parrandalarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**



Qishloq xo‘jaligi va ekologiya  
statistikasi bo‘limi

• 61-222-76-07  
• 61-224-93-11